



NAVOIY VILOYATI NUROTA TUMANI HOKIMI QARORI

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-13-42, nurota@nv.uz

2022 - yil 21 - sentabr

141-5-74-Q/22

Nurota tumani hokimligi

Xalq deputatlari Nurota tuman Kengashining qirq uchinchi sessiyasini chaqirish to'g'risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 17-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Xalq deputatlari Nurota tuman Kengashining qirq uchinchi sessiyasi 2022-yil 28-sentabr kuni soat 14:00 da chaqirilsin.

2. Xalq deputatlari Nurota tuman Kengashining qirq uchinchi sessiyasi kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:

“Mahallabay” ishlash tizimini samarali tashkil etish bo'yicha tuman sektor rahbarlari faoliyati to'g'risida;

tumanda “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili” Davlat dasturining ijrosi to'g'risida;

tuman reyting baholash ko'rsatkichlarining samaradorligi haqida tuman hokimining birinchi o'rinbosari hisoboti to'g'risida;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-aprelda “2022-2026-yillarda Navoiy viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 217-sonli qarori ijrosini tashkil etish va amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida;

Nurota tumanida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida;

Nurota tumanida xotin-qizlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-87-son farmoni ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida;

tumanda tez tibbiy yordam va shoshilinch yordam xizmati faoliyatini takomillashtirish chora-

tadbirlari to'g'risida;

boshqa masalalar.

3. Xalq deputatlari Nurota tumani Kengashining kotibiyati (O.Safarov):

tuman hokimining o'rinbosarlari, tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi va tegishli tashkilotlar rahbarlari bilan birgalikda mazkur sessiyaga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazishga doir tashkiliy tadbirlarning o'z vaqtida bajarilishini ta'minlasin.

Tuman hokimi



A.Fayziyev